# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI HOKIMINING

# Q A R O R I

**Qiziltepa tumani, O‘zbekiston shoh ko'chasi 43-uy**

2023 - yil 17 - aprel 92-5-72-Q/23 Qiziltepa tumani hokimligi

## Qiziltepa tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga sun’iy notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Qiziltepa tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq sun’iy notekisliklar o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (J.Majidov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Jumayev)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq sun’iy notekisliklarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4. Tuman IIB YHXG (D.Yo‘ldoshev)ga mazkur sun’iy notekisliklar o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklansin.

5. Ushbu qaror “Yangi Qiziltepa” gazetasi hamda hokimlikning rasmiy veb-

saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari H.Aliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **U.Fayziyev**

Qiziltepa tuman hokimining
2023 yil 17 apreldagi
92-5-72-Q/23-son qaroriga
1-ilova

# Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan sun’iy notekisliklar bo‘yicha

## MA’LUMOT

| T/r | Joylashtirish joyi | Yo‘l belgisi joylashgan hudud |
|---|---|---|
| 1 | 5-41- umum ta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish joylariga. | O‘zbekiston va Furqat MFY |
| 2 | 1-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Bo‘ston MFY |
| 3 | O‘quv markasi va 9-maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish joyiga. | Bo‘ston MFY |
| 4 | 21-umumta’lim maktabi va maktabgacha na’lim tashkilotiga o‘tich joyiga. | Kulolon va Xusharti MFY |
| 5 | 22-umumta’lim maktabi va 10-maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish joyiga. | Oboddiyor MFY |
| 6 | 3-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | So‘fiyon MFY |
| 7 | 35-umumta’lim maktabi va maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish joyiga | Humo MFY |
| 8 | 25-umumta’lim maktabi va 18-maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish joyiga | Oqrabot MFY |
| 9 | 12-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Vang‘ozi MFY |
| 10 | 38-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Mustaqillik MFY |
| 11 | 42-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Azizobod MFY |
| 12 | 15-umumta’lim maktabi filialiga o‘tish joyiga. | Azizobod MFY |

| | | |
|---|---|---|
| 13 | 19-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Xusbuddin MFY |
| 14 | 43-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Konsurun MFY |
| 15 | 20-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Demas MFY |
| 16 | 33-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Gulbog‘ MFY |
| 17 | 15-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Rabod MFY |
| 18 | 16-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Arabxona MFY |
| 19 | 37-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Yashnaobod MFY |
| 20 | 14-umumta’lim maktabiga o‘tish joyiga. | Hafqariyon MFY |
| 21 | 23-umumta’lim maktabiga va xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotiga o‘tish joyiga. | Ziyokor MFY |